

Qabul qilindi: 25.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024

UDK: 81-26347.7

**RANG BILAN BOG‘LIQ FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI**

Yulduz Mo‘minova Aminboyevna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti assistent o‘qituvchisi,
Urganch davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi

**LINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL
UNITS RELATED TO COLOR**

Yulduz Mominova Aminboyevna,
Assistant teacher of Tashkent University of Humanities,
independent researcher of Urganch State University

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, СВЯЗАННЫХ СО ЦВЕТАМИ**

Юлдуз Моминова Аминбоевна,
Ассистент преподавателя Ташкентского гуманитарного
университета, независимый научный сотрудник Ургенчского
государственного университета



ymominova7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Rang bilan bog‘liq frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari til va madaniyat bilan uyg‘unligi aks etgan. Frazeologik birliklarni qanday ma‘noda qo‘llanishi, milliy urf-odatlarimiz, turmush tarzi va turli insonlarning karakterini ochib berishda yordam beradi.

Kalit so‘z: frazeologiya, rang, lingvomadaniy, lingvokulturologiya, til, madaniyat, xalq.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвокультурные особенности фразеологизмов. Уникальные характеристики цветочных фразеологизмов отражаются в их гармонии с языком и культурой. Он помогает раскрыть значение фразеологизмов, наши национальные традиции, образ жизни и характер разных людей.

Ключевые слова: фразеология, цвет, лингвокультурный, лингвокультурология, язык, культура, народ.

Abstract: This article discusses the linguistic and cultural characteristics of phraseological units. The unique characteristics of color-related phraseological units are reflected in their harmony with language and culture. It helps to reveal the meaning of phraseological units, our national traditions, lifestyle and the character of different people.

Key words: phraseology, color, linguo-cultural, linguo-cultural, language, culture, nation.

Kirish. Biz bilamizki, har bir millat va xalq o‘ziga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar va an‘analari mavjud. Milliy an‘analarimizni o‘zida aks ettiruvchi asosiy vositalar madaniyat, til va adabiyotga

aloqador bo‘ladi. Bizning bilish jarayonimiz eshitib, o‘qib amalga oshadi. Bularning barchasi, albatta, til orqali amalga oshadi. Tilimiz bo‘lganligi sababli biz milliy urf-odatlarimizni anglab, tushuncha hosil

qilishimiz va unutilmasligi uchun asos bo'ladi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi har tomonlama aloqalar jumladan: iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda Lingvokulturologiyaning predmeti o'zato chambarchas aloqada, muloqotda bo'lgan til va madaniyat sanaladi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro-alohasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Har bir frazeologik birliklar o'ziga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lish bilan birga, madaniyat bilan ham uyg'un tarzda bo'ladi.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. N. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflaydi:

- lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega.

-lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi.

- lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin.

-lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari:

a) lisoniy shaxsi

b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavalantirish tizimi hisoblanadi¹¹.

Hammanizga ma'lumki, tilning frazeologik birligi xalq madaniyati va urf-odatlarining qimmatli ma'lumotlar bazasi sanaladi.

O'zbek tili lug'at qatlami frazeologik birliklarga juda boy bo'lib, har biri alohida ma'no ifodalaydi. Har qanday madaniy belgilar birinchi navbatda tilda aks

etadi. Xususan, lingvomadaniy belgilar frazeologik birliklarda boshqa hodisalarga nisbatan kuchli bo'ladi. Chunki iboralarda ta'sir qilish va asosan xalq turmush tarsi bilan uyg'un tarzda, yonma-yon hayot kechiradi. Bir so'z bilan aytganda frazeologik birlik har bir xalqning lingvomadaniy belgisining tub asosini tashkil qiladi, desak bo'ladi.

Frazeologik birliklar har bir xalqning tafakkur dunyosi, ularning qay darajada bilimli ekanligi bilan ham belgilanadi. Biron bir xalq frazeologik birliklarini o'rganganda o'sha xalqning tarixi, madaniyati, milliy an'analari va urf-odatlarini ham o'zlashtiradi.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan rang bilan bog'liq frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, iboralarning qanday ma'no ifodalashidan tortib, to o'zbek xalqning milliylikini ham aks ettiradi. Badiiy matnlarda, ya'ni asarlarda rang bilan bog'liq iboralarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Ranglar orqali qahramonning ruhiy holatini va xalqning madaniyati, milliylik ko'rsatkichi yorqinroq anglashiladi.

Rang orqali ifodalangan frazemalarda kuchli emotsionallik bo'ladi. Chunki rang orqali o'sha xalqning urf-odatlarini bilan birga madaniyatini ham ko'rish mumkin. Frazeologik birliklarni qanday ma'noda qo'llanishi, milliy urf-odatlarimiz, turmush tarzi va turli insonlarning xarakterini ochib berishda yordam beradi. Shuning uchun frazeologik birliklarda umummilliylik, umumxalq ahamiyatiga ega bo'lish ko'proq ko'zga tashlanadi.

Shuhrat asarlarida ishlatilgan ayrim frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Rang bilan bog'liq frazeologik birliklar va maqollar qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishga yordam beradi.

Sabr qiling, jon bolam, xudo sevgan qulini befarzand qo'ymaydi. **Sabr so'nggi – sariq oltin.** – Sabr qilmay, nima qilyapman, oyijon!- deya Jannat yana battar yonardi, sirti kulib, ichi yig'lardi.

Bu parchada sabr so'nggi – sariq oltin maqolda sabr-bardosh ortidan kelajak xayrli natijalarni qimmatbaho toshga o'xshatilganidan, uni dunyoviy maqsad sariq intilishda qat'iyatli bo'lishga targ'ib ma'nosida deb tushunish mumkin.

¹¹ Алефиренко Н.Ф. Лингвокультуроология. Ценностное мысловое пространство языка. Учебное пособие. –М: Флинта, Наука 2010. с-21.

- Munkillab qolgan, g'am-g'ussadan sochlari oqarib ketgan Adolat xola ko'chaga uloqtirib tashlangan yuklari ustida o'tirib: Bu **qora kunlar** o'tar-ketar, yuzingizning kuygani qoladi, Mirsalim! Sodiq kelsa nima deysiz? Uyat!- degan edi, Mirsalim eshitmaganday bo'lib darvozani xolaning yuziga tarsillatib yopib kirib ketdi.

Bu yerda qora kun frazeologik birlik turmushning azob-uqubatli davri ma'nosini ifodalaydi. Qora yurak, yuragi qora frazeologik birlik g'arazgo'y, buzuq niyatli ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: - Sening-ku til yog'lama, ichidan pishganligingni bilardim, lekin yuragi qora, iflos, ig'vogarligingdan bexabar ekanman.

Xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyliigi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. O'zbek tillarida ham millat madaniyati til birikmalari va frazeologizmlarida o'z aksini topadi.

Ko'zining oq-u qorasi iborasining ma'nosi yakka-yu yagona va qadr-qiymati beqiyos yuksak demakdir. Ta'kidlash joizki, oq rang hayotimizda eng ko'p qo'llaniluvchi ranglardan biridir. Bu birlikda oq-qora so'zi juft holda ifodalanib ijobiy ma'no kasb etgan. Biz bilamizki, oq rang ijobiy ma'no kasb qilsa, qora rang esa salbiy ma'no kasb etadi. Lekin matnda ifodalagan ma'nosidan kelib chiqqan holda qanday ma'noda kelganini anglab yetishimiz mumkin. O'zbek tilida esa "oq" rang yaxshilik belgisi hisoblanib, buni o'zbek milliy til xususiyatida aks etadigan ramziy ma'nodagi "ko'ngli oq", "oq yo'l tilamoq" kabi frazeologik birlik, so'z va so'z birikmalarda ham ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu o'rinda "hamma narsaning yaxshi tomonini ko'rmoq" kabi ma'nolar vujudga kelgan.

Xulosa. Rang komponentli frazeologik birliklar ham o'z navbatida, inson ruhiyati va his-tuyg'ularini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Frazeologik birliklarning emotsionalligi insonning turli xil his-tuyg'ularini ifodalash bilan bog'liqdir. Xalqimizda ijobiy voqealar, poklik, omonlik, totuvlik va tinchlik kabi hodisalarni oq rang orqali

ifodalash mavjud. Milliy-madaniyatimizni eng chiroyli qirralarini ko'rsatib turadigan frazemalarda esa oq rang bilan hosil qilinganlari juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Tilimizda oq yo'l bersin, oq fotiha bermoq, oq ko'ngil, oq-qorani tanimoq kabi birikmalar bor. Shuni ham ta'kidlash kerakki, xalqimizda oq rang bilan kelgan frazeologik birlikmalar faqat ijobiy ma'no ifodalab qolmasdan, salbiy ma'no ham ifodalashi mumkin. Buni har bir xalqning madaniyatidan kelib chiqqan holda ifodalanadi.

Qora rang esa salbiy xarakterga egadir. U yomonlik, yovuzlik, zulmat, qorong'ilik kabi ma'nolarda keladi. Xalqimizda qora rang bilan bog'liq frazeologik birlik mavjud bo'lib turli xil ma'nolarni ham ifodalab keladi. Masalan, qora niyat, qora kun kabi birliklar mavjud.

Ushbu iboralar aytganimizdek ko'p hollarda salbiy ma'no kasb etadi. O'zbek tilida ham hozirgi kunda salbiy ma'nolarni anglatayotgan qora rangli iboralar orqali milliylikimizning ayrim ko'rinishlarini ham ochib berishda ishlatiladi. Inson boshiga tushadigan sinovli kunlar va qiyinchiliklarni ko'rsatib berishda biz qora rang bilan bog'liq frazeologik birliklardan foydalanamiz.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, ranglarda ham milliy-madaniyatimiz va an'analarimiz aks etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – T., 1991.
2. Maslova V.A. Лингвокультурология: Учеб. Разрешение. - М.: Академия, 2001.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. -Toshkent, «O'qituvchi», 1969,
6. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -Toshkent, «O'qituvchi», 1992.
7. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn]: lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022.